

## TABIIY FANLARDA ZAMONAVIY DARSLARNING AHAMIYATI

N. B. Xaitova

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti

Ta'lif tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lif) magistranti

### **Annotatsiya**

tabiiy fanlarda zamonaviy dasrlarning ahamiyati, tabiiy fanlarning Milliy dasturdag'i o'rni va tabiiy fanlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** zamonaviy dars, milliy dastur, tabiiy fanlar, AKT, ekologik madaniyat, mintaqaviy komponent, o'lkashunoslik aspekti.

### **Аннотация**

В естественных науках говорится о значении современных уроков, о роли естественных наук в национальной программе и об особенностях естественных наук.

**Ключевые слова:** современный урок, национальная программа, естественные науки, ИКТ, экологическая культура, региональный компонент, краеведческий аспект.

### **Annotation**

In natural sciences it is said about the significance of modern lessons, the role of natural sciences in the national program and the features of natural sciences.

**Keywords:** modern lesson, national program, natural sciences, ICT, ecological culture, regional component, local history aspect.

Hozirgi kunda zamonaviy darslarni tashkil etish va ularning yangicha usullarini ishlab chiqish bugungi kundagi ta'lif tizimining asosiy maqsadi va vazifalariga aylandi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "AKT sohasida ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari" tog'risidagi 2020-yil 6-oktabr PQ-4851-sonli Qarori: "Ilm-fanni o'quv jarayoni bilan integratsiya qilish, o'qituvchilar tomonidan ta'lif jarayonida ilmiy ishlar natijalaridan samarali foydalanish uchun sharoitlar yaratiladi, ularning AKT sohasidagi tadqiqotlar va ilmiy ishlarga bo'lgan qiziqishini oshirish bo'yicha choralar ko'rildi" ni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq sanaladi. Har bir dars jarayonini samarali tashkil etish bevosita zamonaviy dars tizimiga borib taqaladi. Zamonaviy dasr jarayonlari o'zi nima va ular qanday qolip asosida tuziladi kabi savollar tug'ilishi tabiiy. Avvalo, zamonaviy dars deganda,

kompyuterlashgan internet tarmoqlari bilan jihozlangan, eng so'nggi AKT vositalari bilan ta'minlangan auditoriya va sinfxonalarini tushunamiz. Bevosita, bu kabi ta'lim vositalari ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lib, ya'ni qisqa muddat davomida murakkab mavzularni oson usulda tushuntirish va o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish, o'quvchilar dars jarayonida AKT vositalaridan foydalangan holda, mavzuga doir ijtimoiy tarmoqlardan yangiliklar va qo'shimcha ma'lumotlar topish imkonini yaratadi. Zamonaviy darsning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- dars jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga qaratilishi kerak;
- o'qituvchi va o'quvchining barcha faoliyati psixologiya va pedagogikaning eng o'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;
- ko'p o'lchovli maqsadlarning mavjudligi;
- kognitiv, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bayon qilish va yechish;
- ta'limga faol yondashish va ta'lim jarayonini tashkil etishda kompleks yondashuv; Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar funksiyalarining nisbatini o'zgartirish;
- o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, tashabbuskorlik va ijodkorlikni rivojlantirish;
- trening mazmunini optimallashtirish;
- tezkor fikr-mulohaza;
- o'quv vazifalarini izolyatsiya qilish va sinfda turli xil tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish;
- darsning mukammal tuzilishi va darsda ratsionallik va hissiylik nisbati kabi bir qator o'ziga xos asosiy belgilarga egadir.

Yangi tuzilgan Milliy dasturning asosiy maqsadlaridan biri- o'quv jarayonida zamonaviy darslarni qo'llash va yanada samarali usullarini ishlab chiqishga undaydi. Bu dastur hali loyiha shaklida bo'lsa-da, ammo allaqachon o'zini samarasini bera boshladi. Boshlang'ich ta'lim tizimidagi ayrim fanlarning nomi va mazmunining o'zgarishi esa o'qituvchi va o'quvchilarning yangi yondashish va yangicha mulohaza yuritish, turli xil muammoli vaziyatlarning har tomonlama yechimlarini topishga qaratilgan dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda. Eng muhimi, xalqaro baholash tizimiga kirib boorish va unga tayyor turishga zamin yaratmoqda. Shu o'rinda avvalgi nom bilan fan sifatida o'tilib kelayotgan "Arofimizdag'i olam" endigi o'quv jarayonlarida "Tabiiy fanlar" nomi bilan yuritilib kelinoqda. Bu nom faqatgina 1-2-sinflar uchun loyiha sifatida kiritilib, 3-4- sinflar avvalgi nom va dasturga amal qilib kelmoqda. Loyiha sifatida olingan 1-2-sinflarning natija va samarasasi bir yil davomida kuzatilib, tegishli xulosalar yil yakunida e'lon qilinadi. Milliy dastur belgilangan maqsadga yetsa, keyingi sinflardagi fan nomi va mazmuni shu yo'sinda o'zgartiriladi. Milliy dastur bo'yicha Tabiiy fanlar 1-2-sinflar kesimida quyidagicha yillik taqsimot belgilangan:

Sinf	Soat	Haftasiga	Bob	Nazorat ishi	Amaliy mashg'ulot va loyiha ishi
1	33	1	9	-	15
2	68	2	12	8	32

Tabiiy fanlardagi har bir bob yuzasidan beriladigan amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotga tadbiq etish bilan izohlanadi. Amaliy mashg'ulot va loyiha ishlari jarayonlarini zamonaviy o'qitish usulida tashkil etish yanada dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Har xil turdag'i o'quv mashg'ulotlarining mantig'ini o'rganish shuni ta'kidlashga imkon beradiki, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning barcha noan'anaviy shakllari (amaliy mashg'ulot, ekskursiya, tabiat qo'ynda sayohat, maktab yer uchastkalari, geografik maydonchalar) ularning ta'lim maqsadlariga qarab, u yoki bu turdag'i mashg'ulotlarga tegishli bo'lishi mumkin. Shuning uchun, Tabiiy fanlarni o'qitish tizimida mashg'ulotlar turini ko'rsatib, uni o'tkazish shaklini aniqlab olish zarur. Har bir mavzu o'ziga xos mashg'ulotlarga ega bo'ladi, uni tanlab olish va qo'llay olish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Tabiiy fanlarda zamonaviy darslarning ahamiyati quyidagicha etib belgilanadi:

- elementar ekologik madaniyatni shakllantirishda turli multimedia vositalardan foydalanib, oson usulda o'quvchilar ongiga singdirish;
- mintaqaviy komponent orqali o'lakashunoslik aspekti bilan bir qatorda ilmiy xarakter va ekologizatsiya tamoyillarini amalga oshirishda AKTni qo'llash;
- dasrda o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etishdan iborat bo'lgan tabiiy fanlarda o'quvchilarni rivojlantirishni muammosini hal etishda tabiiy obyektlar modellashtirish;
- mashg'ulotning amaliy yo'naltirilganligi hisobiga tajriba, amaliy va labaratoriya ishlari, kuzatishlar, ekskursiya mashg'ulotlarini o'tkazish.

Tabiiy fanlarning o'ziga xos xususiyatlari esa quyidagilardan tashkil topgan:

- ta'limning ijodiy usullaridan foydalanish (qisman izlash, evristik, muammoli);
- tabiiy fanlarni zamonaviy o'qitish usullaridan foydalangfan holda faollik asosida qurish;
- o'quvchining shaxsiy funksiyalarini shakllantirish;
- ta'limning ilmiy xarakterga ega bo'lish va ko'kalamzorlashtirish tamoyillarini amalga oshirish;
- o'quvchilarda dunyoning barcha odamlar, barcha tirik mavjudotlar uchun o'ziga xos va umumiy uy-joy sifatidagi yagona rang-barang qiyofasini yaratish;
- vizualizatsiya asosida turli xil bilim manbalaridan foydalanish (diagramma, jadval, rasm, model va boshqalar)
- yaqqol rivojlantiruvchi xarakter, amaliy yo'nalish.

Zamonaviy darslar har bir o'quvchini faollikka jalb qilish imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda zamonaviy darslarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kun oshib bormoqda, buning asosiy sabablaridan biri, an'anaviy ta'limda o'quvchi faqat tayyor bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy dars tizimi esa ularning egallayotgan bilimlarini o'zлari qidirib topishga, mustaqil o'rganib tahlil qilishga, hatto xulosalarni ham o'zлari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishi uchun sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchi funksiyasini bajaradi. Zamonaviy darslarda o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

### Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasi: tabiiy fanlar.
2. K.T. Suyarov, Z.Y. Tillayeva, Z.B. Sangirova, M.K. Yuldasheva, M.M. Avezova, M.X. Baymuratova, D.S. Azamatova, M.T. Umaraliyeva, U.E. Alimuhamedova, S.G'. Xasanova, D.Q. Turdiyeva, N.V. Yusupova, G.A. Pahramova, Sh.M. Ganiyeva. Tabiiy fanlar 1-sinf., Toshkent-2020.
3. K.T. Suyarov, Z.Y. Tillayeva, Z.B. Sangirova, M.K. Yuldasheva, M.M. Avezova, M.X. Baymuratova, D.S. Azamatova, M.T. Umaraliyeva, U.E. Alimuhamedova, S.G'. Xasanova, D.T. Hasanova, D.Q. Turdiyeva. Tabiiy fanlar 2-sinf., Toshkent-2020.